«O’zbekiston temir yo’llari» DATK
Toshkent temir yo’l muhandislari instituti

Shaumarov N.B.
Shaumarov S.S.

BIR QAVATLI SANOAT BINOSINING ASOSIY YUK KO’TARUVCHI KONSTRUKSIYALARINI HISOBLASH VA LOYIHALASH

5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi”,
5111000 – “Kasb ta’limi” (Bino va inshootlar qurilishi) ta’lim yo’nalishlari
4 – bosqich bakalavriat talabalari uchun kurs loyihasini bajarishga doir
o’quv – uslubiy qo’llanma

Toshkent – 2013

UDK 691

Bir qavatli sanoat binosining asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash. O`quv-uslubiy qo'llanma. **Shaumarov N.B., Shaumarov S.S.** ToshTYMI, T.: 2013, 80 bet.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma 5340200 − "Bino va inshootlar qurilishi", 5111000 – kasb ta'limi "Bino va inshootlar qurilishi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga "Qurilish konstruksiyalari" fani bo'yicha "Bir qavatli sanoat binosining asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash" mavzusidagi kurs loyihasini bajarishga mo'ljallangan.

Mazkur qo'llanmada bir qavatli sanoat binosining ko'ndalang ramasi, ustuni va oldindan zo'riqtirilgan temirbeton to'sinini hisoblash usullari ko'rsatib berilgan. Bino ko'priksimon kran bilan jihozlangan bo'lib, rama statik kuchlarga hisoblangan. Bu kuchlar ta'sirida ustun va to'sinning kesim yuzasida hosil bo'ladigan kuchlanishlar aniqlangan. Bu kuchlanishlar asosida element kesim yuzasining o'lchamlari va kerakli bo'lgan armatura yuzasi topilgan.

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi me'yoriy hujjatlar asosida va qurilishda qo'llanuvchi ko'p qavatli ishlab chiqarish binosining tipik konstruksiyalariga mos ravishda tuzilgan.

Jadvallar −12 ta, rasmlar − 27 ta, bibliogr. nom − 12 ta.

O`quv-uslubiy qo'llanma institutning O'quv-uslubiy komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: P.T. Mirzayev – t.f.n., dots. (TAQI);
I.M. Maxamataliev – t.f.n., dots.

Kirish

Hisoblash ishlarini bajarishdan asosiy maqsad tashqi yuklar ta’siridan konstruksiya elementlarida hosil bo’ladigan zo’riqishlarni hamda talab etilgan armatura miqdori va konstruksiya ishchi chizmalarini tayyorlashdagi zarur ma’lumotlarni aniqlash hisoblanadi. Konstruksiyani hisoblash qurilish me’yorlari talabi asosida amalga oshiriladi.

QMQ 2.03.01-96 [1] temirbeton nazariyasining amaliy natijasi hisoblanib, u konstruksiyalarni loyihalashda, qurishda va foydalanishda erishilgan yutuqlarni o’zida aks ettiradi.

Temirbeton konstruksiyani loyihalash deb, ularning statik kuchlarga konstruksiyalarning ayrim elementlarini kesim yuzalarini hisoblash va loyihalash tushuniladi.

Umuman qurilish konstruksiyalarni hisoblash 2 bosqichdan iborat bo’ladi:

1-bosqichda elementlardagi kuchlanishni aniqlash va bu kuchlanish asosida kesim yuzasini topish;

2-bosqichda konstruksiya egilishini me’yordan oshmasligi uchun tekshirish hisoblanadi.

Kuchlanishni aniqlash bilan “Qurilish mexanikasi” fani shug’ullanadi va uni statik hisoblash usuli bilan tekshiradi. Materialning qarshiligi va uning xususiyatlarini esa “Materiallar qarshiligi” fani o’rganadi.

“Temirbeton konstruksiyalari” fani esa, beton va armaturaning xususiyatlari va ishlash sharoitini hisobga olgan holda yuqoridagi barcha vazifalarni birgalikda hal qiladi. Ya’ni statik hisob ishlarida konstruksiyalar ishlashini aniq ko’rsatadigan hisob tarhlarini belgilash, konstruksiya ishlash vaqtida ularga ta’sir etadigan tashqi yuklarni hisoblash hamda loyihalanayotgan elementlardagi kesim yuzalarida hosil bo’ladigan ichki kuchlanishlarni (eguvchi moment-M, ko’ndalang kuch-Q va bo’ylama kuch-N) aniqlash bilan shug’ullanadi.

Elementning normal kesim yuzasini samarali shakli va o’lchamlarini, beton va armaturaning optimal sinfini, kesim yuzasini va elementini yorilishga bardoshligini va bikirligini hisobga oladigan kesim- hisobiy kesim yuzasi deyiladi. Konstruksiya deb, element qismlarini birlashtirish tushuniladi.

Binolarni konstruktiv hal etish, ularning elementlaridan ishchi va montaj armaturasini foydalanishni samarali sxemasini belgilash, armatura konstruksiya tugunlari va elementlari chizmalarini ishlab chiqish konstruksiyalash deyiladi. Konstruksiyalarni loyihalash kesim yuzasi haqidagi ma’lumotlar asosida me’yoriy talablarni hisobga olgan holda

bino va inshootni qurish va foydalanish jarayonida mustahkamligi, yoriqbardoshligi va bikirligini ta’minlaydigan hisobiy kuchni aniqlashdan iborat bo’ladi.

Loyihalangan konstruksiyalarning samaradorligi ularning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari hamda ishlash jarayonida mavjud foydalanish talablariga mosligi darajasiga qarab baholanadi.

Konstruksiyalarning hisoblashni eng samarali va keng qo’llanilayotgan usuli bu chegaraviy holatlar usulidir.

Konstrutsiyalarning chegaraviy holati deganda shunday holat tushuniladiki, bu holatda konstruksiyalarga qo’yilgan talablarga hamda ishlab chiqarish talablariga javob bermay qoladi, ya’ni ulardan foydalanib bo’lmaydi. Chegaraviy holatlar bo’yicha hisoblashning asosiy maqsadi, konstruksiyani tayyorlashda yoki ulardan foydalanishda chegaraviy holatlar paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslikdir.

Temirbeton konstruksiyalarining chegaraviy holat bo’yicha hisoblashda:

Birinchidan, tashqi yuklar holatini elementning kesim yuzasiga ta’sirini hisobga olish ko’zda tutiladi (M, Q, N). So’ng mustahkamligi va yorilish bardoshligini ta’minlovchi ichki kuchlar aniqlanadi va ular tashqi kuchlar bilan solishtiriladi.

Ikkinchidan, tashqi kuchlar ta’sirida temirbeton elementlaridagi yoriqlarni paydo bo’lishi va kengayishi hamda deformatsiyasi aniqlanadi. Bular ruxsat etilgan me’yoriy qiymati bilan taqqoslanadi.

Kuchni hisoblash statik noaniq konstruksiyalarda, masalan ramalarda qurilish me’yoriy qoidasi bo’yicha mavjud bikirligini hisoblashda amalga oshirilishi kerak.

Shuning uchun mazkur o’quv qo’llanmada bir qavatli, ko’prik kranli, sanoat binosini hisoblash va loyihalash ko’rsatilgan. Bir qavatli ishlab chiqarish binolarining sinchi fazoviy tizimnini ifodalaydi, ya’ni ularni hisoblashda shartli ravishda bo’ylama va ko’ndalang tekis ramalarga ajratish mumkin. Shuning uchun ko’ndalang ramaga ta’sir qilayotgan kuchlar va ularning ta’sirida konstruksiyada hosil bo’ladigan kuchlanishlarni aniqlash hamda oldindan zo’riqtirilgan to’sinni hisoblashga doir masalalar yoritib berilgan.

1. Bir qavatli sanoat binosining asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini hisoblash va loyihalash

Bir qavatli sanoat binosining konstruktiv yechimi. O'lchami 36x78 m bo'lgan bir qavatli sanoat binosining konstruktiv elementlarini hisoblash talab etiladi. Ikki oraliqli bu bino o'lchami 18x6 m ustunlar qatori bilan ajratilgan. Binoning har bir oralig'iga $Q_{кр}$=20t ko'tarish quvvatiga ega ikkitadan ko'priksimon kran o'rnatish ko'zda tutilgan. Yerdan stropila konstruksiyasining pastki qismigacha bo'lgan balandlik H=9.6 m ni tashkil etadi. Bir qavvatli sanoat binosining ko'ndalang yo'nalish bo'yicha turg'unligini ko'ndalang rama va uning tarkibiga kiruvchi ustun va rigellar, bo'ylama yo'nalishi esa ustun va to'sinlardan iborat bo'ylama ramalar (1-rasm) bilan ta'minlangan. Ular tayanch nuqtalarida maxsus bog'lagichlar orqali stropila konstruksiyasining markaziy qismi va ustunlar bilan uzviy bog'langan.

3-rasmda bino tom konstruksiyalarini bog'lagichlar yordamida qanday mahkamlanishi ifodalangan. Tom yopmalari vertikal tomdan, qordan tushadigan yuklar hamda ventilyatsiya moslamalari va boshqa qurilmalari bilan birgalikda stropil konstruksiyasiga tushadi. Shuningdek, ular bino sinchining zilzila, shamol ta'siriga hamda ko'tarma kranlarning yonlama ta'siridan saqlanishi uchun bikir disk shaklidagi gorizontal bog'lag'ich vazifasini ham bajaradi.

Sanoat binosining uzunligi harorat ta'sirini hisobga olgan holda antiseysmik chok bilan birlashtiriladi. Chok uzunligi aniq hisob-kitoblarga ko'ra belgilanadi.



1-rasm. Binoning ko’ndalang qirqimi



2- rasm. Binoning bo’ylama qirqimi



3-rasm. Tom yopma stropilalar tarhi

.

Bo'ylama o'qlar bo'yicha bog'lanish. 30 t gacha yuk ko'taruvchi ko'priksimon kranlar bilan jihozlangan (oralig'i 6 m va balandligi 16.2 m dan kam bo'lmagan ustun) (1-rasm) binolar ustunlarining tashqi tomoni va devorlarning ichki- ustki qismi uzunasiga oraliq o'qlar bilan birlashtiriladi (nolli bog'lanish).

50 t gacha yuk ko'taruvchi ko'priksimon kranlar bilan jihozlangan oralig'i 6 m hamda balandligi 16.2 m yoki 18 m, shuningdek, oralig'i 12 m va balandligi 8.4 m dan 18 m gacha bo'lgan binolar ustunlarining tashqi tomoni va devorlarning ichki-ustki qismi bo'yicha 250 mm lik oraliq o'qlari bilan birlashtiriladi. Ma'lum asoslarga ega bo'lgan holda ustunlarning tashqi tomoni va devorlarning ichki-ustki qismini bo'yiga 500 mm lik oraliq o'qlari bilan birlashtirishga ruxsat beriladi.

O'rta qator ustunlari uzunasiga antiseysmik choklar bilan birlashtirilgan bir yo'nalish oralig'ida balandligi o'zgaradigan o'rta qator ustunlaridan tashqari ularning kran osti qismlari bo'yiga ham eniga ham oraliq o'qlari mos kelishi kerak.

Ko'ndalang o'qlarning joylashishi. Ustunlarning geometrik o'qi bino burchagida joylashgan hamda harorat choklar bilan uyg'un ustunlarni istisno qilingan holda eniga yo'naltirilgan o'qlari bilan birlashtiriladi.

Bino asosiy sinchning burchagida joylashgan ustunlarining geometrik o'qi 500 mm ga bino ichki tomoniga surilgan o'qlarga joylashtiriladi. Burchak devorlarining ichki qismi binoning yon tomoni bilan joylashgan o'qlarga mos keladi (nolli bog'lanish) (3-rasm). Balandligi 9.6 m bo'lib, 30 t gacha yuk ko'taruvchi kranlar bilan jihozlangan, oralig'i 24 m bo'lgan bino ustunlari to'g'ri burchakli qilib qabul qilinadi. Agar binoning parametrlari yuqorida keltirilgan qiymatlardan katta bo'lsa u holda ichki teshikli ustunlar qo'llaniladi.

1.1. Hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar

Qurilish hududi:

Qor qalinligi hosil bo'lgan yuk II (S_0=0.7 kN/m^2);

Shamol bosimi (tezligi) bo'yicha III (W_0 =0.38kN/m^2).

Bir qavatli sanoat binosining konstruktiv asosini yig'ma temirbeton konstruksiyadan iborat bo'lgan karkas asosidagi bo'ylama va ko'ndalang ramalar tashkil etadi.

Karkasli bino elementlarining konstruksiyalari:

1. O'lchami 3×6 m oldindan zo'riqtirilgan tom yopma plitalari (4-rasm).



4-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan tom yopma plitasi

1-jadval

Plitaning marka va seriyasi	Betonning sinfi	Material sarfi		Plitaning og'irligi, kN
		Beton, m^3	Po'lat.kg	
1	2	3	4	5
$\frac{AV}{3x6}-5$	B25	1.07	103	27

2. Bino tomi rulonli to'shama bilan yopilgan hamda ikki nishabli uzunligi 18m bo'lgan oldindan zo'riqtirilgan panjarasimon tuynukli to'sin bilan jihozlangan (5-rasm).



5-rasm. Ikki nishabli uzunligi 18m bo'lgan oldindan zo'riqtirilgan panjarasimon tuynukli to'sin

2-jadval

To'sinning marka va seriyasi	Kesim yuzasining o'lchamlari,mm		Betonning sinfi	Material sarfi		To'sinning og'irligi, kN
	h_1	h_2		Beton, m^3	Po'lat,kg	
1	2	3	4	5	6	7
БДР 18-2 A-V	320	360	B30	3,4	307	92

1. Chetki ustunlari oralig'i 6m., o'rtadagilari oralig'i 6 (12m). bo'lib, 10-20t lik ko'priksimon kran bilan jihozlangan, oralig'i 18-24m bo'lgan

bir qavatlik binoning ustunlari yaxlit kesimli to’g’ri burchakli qilib loyihalanadi (6-rasm).



6-rasm. Chetki va o’rta qator ustunlari

3-jadval

Ustun-ning marka va seriyasi	Ustun qadami, m	Poldan balandligi, m		Kran-ni yuk ko’tarishi (tN)	Ustun o’lchamlari (mm)					Beton-ning sinfi	Material sarfi		Ustun og’irligi, kN
		Storopil konstruksiyasi-ning pastki qismigacha	Kran relsi-ning yuqori qismigacha		H	h	a	b	c		Beton m^3	Po’lat kg	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
КП1-5	6	9.6	Chetki qator ustunlari										
			6.95	20	10600	6800	800	400	380	B20	2.83	271	71
КП1-8	6	9.6	O’rta qator ustunlari										
			6.95	20	10600	6800	800	400	600	B20	3.67	421	92

2. Oldindan zo’riqtirilgan kran osti yig’ma to’sinlari.

КЭ-01-40 seriyasidagi Q=5÷20t. yuk ko’taruvchi kranlar bilan jihozlangan, oralig’i 6m (7-rasm).



7-rasm. Oldindan zo'riqtirilgan kran osti to'sini

4-jadval

Balkaning marka va seriyasi	O'lchamlar (mm)			Betonning sinfi	Kranning yuk ko'tarishi, QTN	Material sarfi		To'sin og'irligi kN
	l	b	h			Beton, m^3	Po'lat,kg	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
БКНЛ6-1К	5950	350	1000	B25	20	1.17	178	29.3

3. Qalinligi 240mm bo'lgan, yengil betondan tayyorlangan oralig'i 6m li ustunlarga o'rnatilgan devor paneli (isitiladigan binolar uchun) (8-rasm).



8-rasm. Ustunlarga o'rnatilgan devor panellarining joylashuvi

PPYu – parapet panelining yuqori qismi PPYu =SKT+$h_т$+$h_{пл}$+$t_{кр}$ (20...30sm) SKT=9,6m stropila konstruksiyasining tag qismigacha bo'lgan masofa.

$h_т$ =0.89m stropila to'sinining tayanch qismi balandligi

$h_{пл}$ =0.3m plita balandligi $t_{кр}$ =0,2+0,3m tom yopma to'shamasining qalinligi parapet panelining yuqori qismi PPYu =11.4 m.

5- jadval

Panel chizmasi	Panel markasi	Panelning qalinligi	Betonning hajmiy og'irligi,kg/m^3	Material sarfi		Panel og'irligi, kN
				Beton, m^3	Po'lat, kg	
1	2	3	4	5	6	7
1200 6000	$\frac{ПСЛ20}{1.2x6}$	200	900-1200	1.14	28-119	20
1800 6000	$\frac{ПСЛ20}{1.8x6}$	200	900-1200	1.70	34-151	30

1.2. Kran jihozlarining asosiy ko'rsatkichlari

Berilgan topshiriqqa ko'ra, o'rtacha ish rejimli Q=20 t yuk ko'taruvchi ko'priksimon kran qabul qilingan (9-rasm).



9-rasm. Ko'priksimon kranning ko'rinishi

$$l_{kp} = l - 2 \cdot \lambda = 18 - 2 \cdot 0{,}75 = 16{,}5м$$

6- jadval

Q (тN)	$l_{кр}$, (m)	Asosiy o'lchamlar (mm)			Kranning relsi	Kran g'ildiragining relsga ta'sir qilayotgan bosimi				Og'irligi (kN)	
		B	K	N		P^{max}	P^{min}	T	$T_{пр}$	aravacha	kranning
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
20	16.5	6300	4400	2400	P43, KP70	195	48	7.1	19.5	85.0	285

2. Sinchli binoning ko'ndalang ramasini statik kuchlar ta'siriga hisoblash

2.1. Ko'ndalang ramaning tuzilishi

Asosiy uyg'unlashgan kuchlar ta'siridagi bosimni hisobga olgan holda ko'ndalang ramalar qatorini ko'rib chiqamiz. Ko'ndalang ramalarning tuzilish sxemasini aniqlash uchun uni o'lchamlarini topamiz.

$N_{в=}$N-h=10600-6800=3800mm=3.8m

$N_N=N_0-N_в$+0,15=9600-3800+0,15=5950mm=5,95m

$N_в$- kran usti qismi balandligi;

N_N- kran ostki qismidan to poydevor ustki qismigacha bo'lgan balandlik;

N- ustunning uzunligi;

h- ustunning kran ustki qismi balandligi;

N_0- bino balandligi; 0,15- pol ustidan poydevorning usti qismigacha bo'lgan masofa.

Ko'ndalang rama uchun ustun kesim yuzasining inersiya momentlari formulasi quyidagicha aniqlanadi:

Chetki ustun (kran usti qismi uchun) $I_{b1} = \frac{b \cdot c^3}{12} = \frac{0.4 \cdot 0.38^3}{12} = 1.83 \cdot 10^{-3} m^4$;

Chetki ustun (kran osti qismi uchun) $I_{H1} = \frac{b \cdot a^3}{12} = \frac{0.4 \cdot 0.8^3}{12} = 17{,}07 \cdot 10^{-3} m^4$;

O'rta ustun (kran usti qismi uchun) $I_{b2} = \frac{b \cdot c^3}{12} = \frac{0.4 \cdot 0.6^3}{12} = 7.2 \cdot 10^{-3} m^4$;

O'rta ustun (kran osti qismi uchun) $I_{H2} = \frac{b \cdot a^3}{12} = \frac{0.4 \cdot 0.8^3}{12} = 17.07 \cdot 10^{-3} m^4$.

$J_{B3} = J_{B1} = 1{,}83 \cdot 10^{-3}$; $\quad J_{H3} = J_{H1} = 17{,}07 \cdot 10^{-3}$

2.2.Ko'ndalang rama sinchiga ta'sir qilayotgan vertikal yuklarni aniqlash

2.2.1. Ramaga tushayotgan doimiy yuklarni aniqlash



10-rasm. Doimiy yuklar ta'sirida bo'lgan ramaning hisobiy sxemasi

7-jadval

Doimiy yuk miqdorini aniqlash

Yuk turi	Me'yoriy yuk	Ishonchlilik koeffitsiyenti, γ_f	Hisobiy yuk
1. Tom, (kN/m^2)			
-rulonli yopma	0.15	1.2	0.18
-asfaltli qatlam δ=20mm	0.35	1.2	0.42
-gazobetonli issiqlik o'tkazmaydigan qatlam δ=120mm, γ=400 kg/m^3	0.48	1.3	0.624
-bug'dan himoya qiladigan qatlam	0.05	1.2	0.06
-choki to'ldirilgan t/b plitalar	1.78	1.1	1.96
Jami	$q^{н}_{кр}=2.81$		$q_{кр}=3.244$
Ikki nishabli,tuynukli to'sin (kN)	85	1.1	$G_δ$=93.5
chetki qator ustuni			
-kran usti qismi 0.38·0.4·3.8·25=14.44			
-kran osti qismi	14.44	1.1	G_{b1}=15.884
$G_{H1}=G_k-G_{b1}=71-14{,}44$			
o'rta qator ustuni	56.56	1.1	$G_{H!}$=62.216
-kran usti qismi 0.6·0.4·3.8·25=22.8			
-kran osti qismi	22.8	1.1	G_{b2}=25.08
$G_{H1}=G_k-G_{b1}=92-22.8$	69.2	1.1	G_{H2}=76.12
-kran osti to'sini, kN	29.3	1.1	$G_{nδ}$=32.23
-devor panellari, kN/m^2	2.2	1.1	$g_{ст.n}$=2.42
-deraza oynalari, kN/m^2 .	0.4	1.1	$g_{ост}$=0.44

$$e_1 = \frac{C}{2} - 150 = \frac{380}{2} - 150 = 40\ mm$$

$$e_2 = \frac{C}{2} + 20 + \frac{h_{C.T.П}}{2} = \frac{380}{2} + 20 + 100 = 310\ mm$$

$$e_3 = \lambda - \frac{a}{2} = 750 - 400 = 350\ mm$$

$$e_4 = \frac{a}{2} - \frac{C}{2} = 400 - 190 = 210\ mm$$

$$e_5 = \frac{a}{2} + 20 + \frac{h_{C.T.П}}{2} = 400 + 20 + 100 = 520\ мм$$

Sxemaga ko'ra yuklarning uyg'unlashishidan doimiy yuklarni hisoblab chiqamiz.

$$P_{11} = q_{кр} \cdot \frac{Ld}{2} + \frac{G_\delta}{2} + q_{ct.n.} \cdot d \cdot h_1 = 3.244 \cdot \frac{18 \cdot 6}{2} + \frac{93.5}{2} + 2.42 \cdot 6 \cdot 1.8 = 175.18 + 46.75 + 26.136 = 248.07$$

$$P_{12} = G_{b1} + q_{CT.П.} \cdot d(h_2 + h_4) + q_{O.C.T} \cdot d \cdot h_3 = 15.88 + 2.42 \cdot 6 \cdot (0.6 + 1.4) + 0.44 \cdot 6 \cdot 1.2 =$$

$$= 15.88 + 29.04 + 3.168 = 48.09$$

$$P_{13} = G_{n.б.} = 32.23$$

$$P_{14} = G_{H1} + q_{CT.П.} \cdot d \cdot h_5 + q_{OC.T} \cdot d \cdot h_6 = 62.22 + 2.42 \cdot 6 \cdot 0.4 + 0.44 \cdot 6 \cdot 1.8 = 62.22 + 5.8 + 4.75 = 72.77$$

$$P_{21} = q_{кр} \cdot Ld + G_\delta = 3.24 \cdot 18 \cdot 6 + 93.5 = 349.92 + 93.5 = 443.42$$

$$P_{22} = G_{b2} = 25.08$$

$$P_{23} = 2G_{n.б.} = 2 \cdot 32.23 = 64.46$$

$$P_{24} = G_{H2} = 76.12$$

Bu yerda L va d – to'sinining uzunligi va ustun qadami L=18,0 m; d=6,0m.

Doimiy yuklar ta'siridan eguvchi moment qiymati (nol bog'lanish).

$$M_{11} = -\left(q_{кр} \cdot \frac{Ld}{2} + \frac{G_\delta}{2}\right)e_1 - q_{CT.П.} \cdot d \cdot h_1 \cdot e_2 = -(3.24 \cdot \frac{18 \cdot 6}{2} + \frac{93.5}{2}) \cdot 0.04 - 2.42 \cdot 6 \cdot 1.8 \cdot 0.31 =$$

$$= -(174.96 + 46.75) \cdot 0.04 - 8.10 = -8.67 - 8.10 = -16.97$$

$$M_{13} = -(P_{11} + G_{b1}) \cdot e_4 + q_{CT.П.} \cdot d(h_2 + h_4 + h_5)e_5 - q_{O.C.T.} \cdot d(h_3 + h_6)e_5 + P_{13}e_3 =$$

$$= -(248.07 + 15.88) \cdot 0.21 + 2.42 \cdot 6(0.6 + 1.4 + 0.4) \cdot 0.52 +$$

$$+ 0.44 \cdot 6(1.2 + 1.8) \cdot 0.52 + 32.23 \cdot 0.35 = -55.43 + 18.12 + 4.12 + 11.28 = -21.9$$

2.2.2. Ramani qor bosimi ta'siriga hisoblash

Qor bosimi ta'sirida bo'lgan ramaning hisobiy sxemasi 11-rasmda berilgan.



11-rasm. Qor bosimi ta’sirida bo’lgan ramaning hisobiy sxemasi

Teng taqsimlangan yoyiq hisobiy qor bosimining hisobi $S = S_0 \mu \gamma_f h_c$ aniqlanadi. Bu yerda S_0 1 m^2 yuzaga tushadigan qor og’irligi (13.4-jadval)ga ko’ra, μ=1 (п5.3-5.6 [2]) binoan, yerdagi qor qalinligini tomdagi qor bosimga o’tish koeffitsiyenti; $\gamma_{f=1,4,}$ yuk bo’yicha ishonchlilik koeffitsiyenti. Yuklarning uyg’unlashishidagi asosiy yuk S=0,7·1·1,4·0,9=0,88kN/m^2. Chetki ustunga hisobiy qor bosimining ta’siri.

$\rho_1^{сн} = \rho_3^{сн} = S\frac{Ld}{2}$ =0,88$\frac{18*6}{2}$=47,5kN

O’rta ustunga ta’siri p_2^{cN}=SLd=0,88·18·6=95,04kN

Qor bosimining ta’siridan hosil bo’ladigan eguvchi moment qiymati

$M^{сн}_{11} = -\rho^{сн}_1 e_1$ =-47,5·0,04=-1,9kN·m

$M^{сн}_{12} = -\rho^{сн}_1 (e_4 + e_1)$=-47,5(0,21+0,04)=-11,88kN·m

2.2.3. Ramani shamol bosimi ta’siriga hisoblash

Shamol bosimi ta’sirida bo’lgan ramaning hisobiy sxemasi 12-rasmda keltirilgan.



12-rasm. Shamol bosimi ta’sirida bo’lgan ramaning hisobiy sxemasi

Shamol ta’siridan hosil bo’ladigan kuch quyidagi formula bo’yicha aniqlanadi.

$$W = W_0 \mathrm{K} C \gamma_f$$

Bu yerda W_0 =0.38 kN/m^2 ; koeffitsiyenti K quyidagi formula bo’yicha topiladi.

$\mathrm{K} = \mathrm{K}_{10} + \frac{(\mathrm{K}_{20} - \mathrm{K}_{10})}{10} h$. Ustunning tepa qismida

$$\mathrm{K}_{9,6}=0,5+\frac{(0,65-0,5)}{5}\cdot 4,6 = 0,638m .$$



13-rasm

Ustunning tepa qismida $H_п$ dan H_k gacha bo’lgan masofaning o’rtacha qiymatiga teng. $(\mathrm{H}_{П} + \frac{\mathrm{H}_{К} - \mathrm{H}_{П}}{2} - \mathrm{H}_{10}) = 9,6 + \frac{11,84 - 9,6}{2} - 10 = 0,72m$

$$N_к=9,6+1,64+0,3=11,84m$$

$$K=K_{10,72}=0,65+\frac{(0,85-0,65).0,72}{10}=0,664$$

Parapet devor panelini hisobga olgan holda, shamolning ustun tepa qismiga bo’lgan ta’siri quyidagicha hisoblanadi. $W=Wh_cd(H_k-H_h)=$ $W_0\, k_{10.72}\ C\gamma_f h_c d(H_k - H_h) = 0,38\cdot 0,664\cdot(0,8+0,6)\cdot 1,4\cdot 0,9\cdot 6\cdot(11,84\text{-}9,6)=6,0\text{kN}$



14-rasm. Ustun bo'ylab teng ta'sir etuvchi shamol kuchi

Ustun bo'ylab teng ta'sir qiluvchi shamol kuchi $P=Wh_cd$ ga teng.

$H_п>10m$ bo'lgan holatida tayanch nuqtasidagi momentlarni tengligidan shartli mahkamlangan sterjen shamol bosimiga ekvivalent bo'lgan ta'siri quyidagicha hisoblanadi.

$$M_{on} = W_{10}\frac{H^2_n}{2} + (W_{Hn} - W_{H10})(H_n - H_{10})\frac{1}{2}[H_{10} + \frac{2}{3}(H_n + H_{10})];$$

$$M^{экв}_{on} = W_{экв}\frac{H^2_n}{2} \quad ; \quad W_{экв} = \frac{2M_{on}}{H^2_n}$$

u holatda shamol bosimi:

a) Shamolning faol ta'siri:

$$W_5 = W_0 \cdot 0{,}5 \cdot 0{,}8 \cdot 1{,}4 = 0{,}38 \cdot 0{,}5 \cdot 0{,}8 \cdot 1{,}4 = 0{,}21 kN/m^2$$

$$W_{9.6} = W_{0 \cdot \kappa_{9,6}} \cdot 0{,}8 \cdot 1{,}4 = 0{,}38 \cdot 0{,}638 \cdot 0{,}8 \cdot 1{,}4 = 0{,}27 kN/m^2$$

$$M^a_{on} = W_5\frac{H^2_n}{2} + (W_{9.6} - W_5)(H_n - H_5)\frac{1}{2}[H_5 + \frac{2}{3}(H_n - H_5)] = 0{,}21 \cdot \frac{9{,}6^2}{2} + (0{,}27 - 0{,}21)(9{,}6 - 5) \cdot \frac{1}{2} \cdot$$

$$\left[5 + \tfrac{2}{3}(9{,}6 - 5)\right] = 10{,}79 kN \cdot m$$

$$W^a_{экв} = \frac{2M^a_{on}}{H^2_n} = \frac{2 \cdot 10.79}{9.6^2} = 0.23 kN/m$$

b) Shamolning faol bo'lmagan ta'siridan:

$$W_5 = W_0 \cdot 0{,}5 \cdot 0{,}6 \cdot 1{,}4 = 0{,}38 \cdot 0{,}5 \cdot 0{,}6 \cdot 1{,}4 = 0{,}16 kN/m^2$$

$$W_{Н.П} = W_{9.6} = W_0 \cdot K_{9.6} \cdot 0.6 \cdot 1.4 = 0.38 \cdot 0.638 \cdot 0.6 \cdot 1.4 = 0.20 kN/m^2$$

$$M^n_{on} = W_5 \frac{H_n^2}{2} + (W_{9.6} - W_5)(H_n - H_5)\frac{1}{2}[H_5 + \frac{2}{3}(H_n - H_5)] = 0{,}16 \cdot \frac{9{,}6^2}{2} + (0{,}20 - 0{,}16)(9{,}6 - 5) \cdot \frac{1}{2} \cdot$$

$$\cdot \left[5 + \frac{2}{3}(9{,}6 - 5)\right] = 8{,}11 kNm$$

$$W^n_{экв} = \frac{2M^n_{on}}{H_n^2} = \frac{2 \cdot 8{,}11}{9{,}6^2} = 0.18 kN/m$$

Ustun bo'ylab shamolning ta'siri $P=Wh_cd$ formulasiga ko'ra:

faol holatda $P_a = Wh_cd = 0.23 \cdot 0{,}9 \cdot 6 = 1{,}24 kN/m$

faol bo'lmagan holatda $P_п = 0{,}18 \cdot 0{,}9 \cdot 6 = 0{,}97 kH/м$ ga teng.

2.2.4. Ramani kran ta'siriga hisoblash

Ko'priksimon kranlar ta'sirida bo'lgan ramaning hisobiy sxemasi 15-rasmda ifodalangan.



1

5-rasm. Ko'priksimon kranlar ta'sirida bo'lgan ramaning hisobiy sxemasi

$Q_{кр}$= 20/5 t yuk ko'tarish quvvatiga ega (o'rtacha ish rejimli , ikki ilmoqli) ko'priksimon kran berilgan. Oralig'i $L_к$ =16.5m kengligi B=6300mm, g'ildiraklar orasidagi masofa K=4400mm, balandligi N= 2400mm, kranning telejkasi bilan birga og'irligi $Q_{общ}$=285 kN telejka og'irligi G = 85kN, relslarga kran g'ildiragining maksimal bosim ta'siri $\rho^n_{max} = 195kN$ minimal bosim ta'siri $\rho^n_{min} = 48kN$. Kranning tormozlanish vaqtidagi kuchi $T^n_{поп}$=7,1 kN.

Bitta g'ildirakning hisobiy bosim ta'siri.

P_{max} =195·1.2=234 kN; P_{min} =48·1.2=57.6 kN ; $T_{поп}$=7,1·1,2 =8,5 kN tashkil etadi.

Ikkita kranning ustunga vertikal yo'nalishidagi bosimi ta'siri o'rnatilgan ikki kran osti to'sinlarining tayanch reaktsiyasining yig'indisi

(ikkita bir – biriga yaqinlashtirilgan holatda) kranning ta'sir chizig'i bo'yicha quyidagicha aniqlanadi (16-rasm).



16-rasm.

Ikki kran yaqin holatda bo'lgandagi g'ildiraklari orasidagi masofa a=B-K=6300-4400=1900mm, ustun qadami d=6m.

U holda ta'sir chizig'i ordinatasi:

$$Y_1 = \frac{Y_2(d-k)}{d} = \frac{1(6-4.4)}{6} = 0.267$$

$$y_2 = 1{,}0$$

$$Y_3 = \frac{Y_2(d-a)}{d} = \frac{1(6-1.9)}{6} = 0.684$$

$$Y_4 = \frac{Y_2[d-(k+a)]}{d} = 0 \text{ ga teng.}$$

Chunki k+a =4.4+1.9=6.3>d=6m , $Y_4 = 0$

Ta'sir chizig'i ordinatasining yig'indisi:

$$\sum Y = Y_1 + Y_2 + Y_3 + Y_4 = 0{,}267 + 1 + 0{,}684 + 0 = 1{,}951$$

Ustunga ta'sir qilayotgan bosim kuchi:

a) maksimal qiymati $D_{1max}=D_{2max}=P_{max}\sum Y\cdot 0{,}9=234\cdot 1{,}951\cdot 0{,}9=411kN$

b) minimal qiymati $D_{1\min} = D_{2\min} = P_{\min}\sum Y \cdot 0.9 = 57.6 \cdot 1.951 \cdot 0.9 = 101kN$

Kranlarning vertikal yo'nalishdagi ta'siridan hosil bo'lgan qo'shimcha ekssentrisitetlar qiymati: $e_{n1} = e_{np,1} = e_3 = 350мм$; $e_{np,1} = e_{n,2} = \lambda = 750mm$

Gorizontal bosim (kuchi) ikkita bir–biriga yaqin kelgan holatdagi kranning tormozlanish paytidagi ustunga ta'sir qilayotgan gorizontal bosimi (kuchi) $T_1 = T_2 = T_{non}\cdot\sum Y\cdot 0{,}9 = 8{,}5\cdot 1{,}951\cdot 0{,}9 = 15кН$ ga teng.

Kran relsining ustki qismiga ko'ndalang tormozlanish kuchi ustun tepasiga masofasi $a_1 = h_{nб} + h_{кр} = 1000 + 120 = 1120мм = 1{,}12м$ qo'yilgan deb hisoblaymiz.

3. EHM da sinchli ko’ndalang ramaning statik hisobi

EHM da sinchli ko’ndalang ramaning statik hisobini “RAMA - 1” dasturi asosida amalga oshirish mumkin. Ushbu dastur bir qavatli sanoat binolari ko’p oraliq ramalarning statik va dinamik kuchlar ta’siriga hisoblashga mo’ljallangan.

Ramaning tuzilish sxemasi quyidagi 17-rasmda ko’rsatilgan.



17-rasm. Ramaning tuzilish sxemasi

220 DATA 3.0 (3-ustunlar soni; 0-seysmikaga hisoblash)
240 DATA 0.4, 0.8; 0.4, 0.38;0.4, 0.8; 0.4, 0.6 (ustunlarning kesim yuzasi)
260 DATA 5.95, 3.8,;5.95, 3.8, (ustunlarning ostki va ustki qismining uzunligi)
280 DATA 368.93; 47.5; 32.23; 411(tepadan pastga qarab ta’sir qilayotgan yuklar:$p_{11}+p_{12}+p_{14}$; $p_{1,cN}$; $p^{пб}_{1,3}$; $Д_{max}^{kp}$)
300 DATA 15;2.68 (kranning tormozlanish ta’siridagi kuchi; masofasi)
320 DATA 1.24;0.97, 6 (shamol ta’siri)
360 DATA (talabaning ismi,sharifi; hisoblash vaqti)

RAMA-1 dasturi bo’yicha bir qavatli sanoat bino ramasining hisobi.
Boshlang’ich ma’lumotlar:

N=3 S=0
B1=0.4 H1=0.8 B2=0.4 H2=0.38 B3=0.4 H3=0.8
B4=0.4 H4=0.6
L1=5.95 L2=3.8 L3=5.95 L4=3.8
PPH=368.93 PCH=47.5 PPB=32.23 DMAX=411
T=15 L5=2.68
P1=1.24 P2=0.97 W=6

Yig’ma temir beton konstruksiyalaridan qurilgan sanoat binosining ustunida tashqi kuchlar ta’siridan hosil bo’ladigan kuchlanishlarni EHMda hisoblash natijasida:

- bir qavatli sanoat bino ramasini“A„ o’qi bo’ylab;
- doimiy yuklar ta’sirida;
- qor bosimi ta’siridan;
- shamol ta’siridan;
- kran ta’siridan;
- kran tormizlanish ta’siridan, ustunda hosil bo’ladigan kuchlanishlar qiymatlari aniqlanadi.

Shu bilan birga ko’ndalang ramaning “B„ o’qi bo’ylab, o’rta qator ustun kesim yuzasida yuqorida keltirilgan kuchlar ta’siridan kuchlanishlar qiymati alohida-alohida holda aniqlanadi.

Natijada, ramada tashqi kuchlar ta’siridan hosil bo’ladigan „M“ „Q“ va „N“ epyuralari quriladi.

Chetki qator ustunlar uchun uchta kesim yuzasi bo’yicha yuqorida keltirilgan kuchlardan olingan natijalar 8-jadvalda keltirilgan.

Ko’ndalang rama chetki ustunining kesim yuzasida hosil bo’ladigan kuchlanishlar

8-Jadval

Yuklar	Eguvchi moment epyuralari	Yuklanish tartibi	Uygunlanish koef.	Ustunning kesim yuzasi						
				2		3		4		
				M, kNm	N, kN	M, kNm	N, kN	M, kNm	N, kN	Q, kN
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Doimiy yuk		1	1	22.5	427,33	-52,66	459,56	1,79	524,76	9,15
Qor bosimi ta’siridan		2	1	4.09	52,78	-6,98	52,78	-0,57	52,78	1,08
		3	0.9	3.68	47,5	-6,28	47,5	-0,51	47,5	0,97
Shamol ta’siridan		4	1	5.56	0	5,56	0	54,22	0	12,28
		5	0.9	±5.00	0	±5,00	0	±48,80	0	±11,05
Kran ta’siridan (A tayanchdagi Dmax)		6	1	-59,11	0	100,71	456,67	8,16	456,67	15,56
		7	0.9	-53,20	0	90,64	411	7,34	411	-14,00
Kranni tormozlanish ta’siridan (A tayanchdagi T)		8	1	-11,48	0	-11,48	0	40,48	0	8,73
		9	0.9	-10,33	0	-10,33	0	36,43	0	7,86
Kran va shamolni hisobga olgandagi kuchlarning asosiy uyg’unlanishi		M_{max}		1,3,5		1,5,7		1,5,7,9		
				31,13	474,83	42,98	870,56	94,36	935,76	14,06
		M_{min}		1,5,7,9		1,3,5,9		1,3,5		
				-46,08	427,33	-74,27	412,06	-47,52	527,26	-0,93
		N_{max}		1,3		1,3,7		1,3,7		
				26,13	474,83	31,7	918,06	8,62	983,26	-3,88
Shuning o’zi kran va shamolni hisobga olmaganda				1,2		1,2		1,2		
				26,54	480,11	-59,64	512,34	1,22	577,54	10,23

Doimiy yuklar ta’siriga hisoblash





18-rasm. Ramani “A” o’qi bo’ylab yuklash

Chap chetki ustunga kran ta’siridan Dmax



O’rta ustun AB va BV tomonidagi kran ta’siridan Dmax



Kranning tormozlanishi T ta’siridan



19-rasm. Ramada hosil bo’ladigan „M“, Q“ va „N“ epyuralari

4. Bir qavatli sanoat binosining tom yopmasi uchun ishlatiladigan oldindan zo'riqtirilgan to'sinni hisoblash va loyihalash

4.1. Ikki nishabli, tuynukli to'sinlarni loyihalash

Temirbeton to'sinlar asosan 12 va 18 m ravoqli sanoat binolari tomini yopishda qo'llaniladi. To'sinlar o'rta qismining ko'ndalang kesim yuzasi to'g'ri to'rt burchakli, tavr yoki qo'shtavr, tayanch zona qismi esa, to'g'ri to'rtburchak shaklida olinada. Ko'p hollarda ikki nishabli to'sinlar devorlarining o'rta qismi siniq ko'p burchak shaklida tuynukli qilib tayyorlanadi (to'sinning vaznini yengillashtirish maqsadida). Bu teshiklarning har birining yuzasi 0,5….1,0 m^2 teng bo'ladi. Shuning uchun ularni tuynukli to'sin deyiladi. Ikki nishabli tuynukli to'sinlar gorizontal holatda tayyorlanadi. Ulardagi teshiklar to'sin vaznini yengillashtirish bilan birga betonni tejashda hamda har-xil kommunikatsiyalarni o'tkazishda xizmat qiladi.

Bu to'sinlar B20....B60 sinfli og'ir betonlardan tayyorlanadi. To'sinlarning uzunligi 12 m va undan ortiq bo'lgani uchun, ular o'ta mustahkam po'lat armaturalar bilan jihozlanadi va oldindan zo'riqtiriladi.

Zo'riqtirilgan armatura sifatida B-II, Bp-II, K-7, K-19, A-IV, A-V va A-VI va oddiy armaturalar sifatida esa A-I, A-II, A-III va Bp-I sinfli armaturalar qo'llaniladi.

Vaqtincha va doimiy ta'sir etuvchi yuklar to'singa tom yopmalarining qobirg'alari yordamida tayanch qismi orqali to'singa to'plangan (yig'iq) yuk tarzida uzatiladi. Agar to'plangan yuklarning soni 5 va undan ortiq bo'lgan hollarda, ularni teng tarqalgan (yoyiq) yuk bilan almashtirishga ruxsat etiladi.

Bunda yorug'lik va havo almashinuvi fonarlari hamda osma transport vositalaridan tushadigan yuklar to'plangan yig'iq yuklar tarzida olinadi.

Ikki nishabli tuynukli to'sinning geometrik o'lchamlari va uni armaturalanish tarhlari 19-rasmda keltirilgan. To'sin o'rta qismining balandligi $h\left(\frac{1}{10}\cdots\frac{1}{15}\right)l$ga teng qilib, ustki kamarining qiyaligi $i=\frac{1}{10}\cdots\frac{1}{15}$ oralig'ida, tayanch qismi balandligi esa h=800….900 mm oralig'ida olinadi. To'sinning ostki kamar eninig o'lchami oldindan zo'riqtiriladigan armaturalarning joylanish shartiga asosan, B=200....300 mm oralig'ida olinadi.

To'sinning siqiluvchi kamarining balandligi quyidagi shartga binoan olinadi.

$$h'_f > \mu h_0 \frac{R_s}{R_b} \quad (1)$$

bu yerda μ 0,004.....0,005 armaturalash koeffitsiyenti bo'lib, to'sin devoridagi tuynukni hisobga olgan holda belgilanadi.

Yig'ma stropil to'sinlarni hisolashda uni ikki tayanchga erkin tayangan holda deb qaraladi (4-rasm).

Bu holda to'sinning uzunligi quyidagicha aniqlanadi (20-rasm).

$$l_0 = l - 2\delta - 2c \quad (2)$$

Bu turdagi to'sinlar ko'p oraliqli statik noaniq va tugunlari bikir birlashtirilgan uzluksiz qator ramalardan iborat deb qaraladi. Bu ramalardagi zo'riqish va defomatsiyalar EHM orqali aniqlanadi. Biroq loyihalashda uni soddalashtirilgan holda tuynukli to'sin tarzida ham hisoblash mumkin (20-rasm).

Ikki nishabli to'sinlarda eng xavfli kesimi to'sinning o'rta qismida emas, balki tayanch qismidan L=(0,35…..0,40)l masofada bo'ladi. Bo'ylama ishchi armaturaning yuzasi shu kesim uchun topilgan eguvchi moment bo'yicha aniqlanadi.

To'sinning kesim yuzalari uchun eguvchi moment qiymatlari (3-rasm) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M=0,5qx(l_0-x) \quad (3)$$

To'sin kesimlarining geometrik xarakteristikalarini aniqlash jarayonida, elastik-plastik qarshilik momentlarini (w_{pl} va w'_{pl}) hisoblashda qo'llaniladigan, kesim yuzasi shaklini hisobga oluvchi koeffitsiyent γ ni bunday to'sinlar uchun jadvaliy qiymati yo'qligi tufayli w_{pl} va w'_{pl} ni hisoblash quyida keltirilgan to'sin kesimining nol chizig'ini aniqlovchi tenglama (4) orqali bajariladi. Bunda kesimning pastki cho'zilishga w_{pl} va aksincha, kesimning yuqori qismi siqilishga ishlaydi deb w'_{pl} aniqlanadi.

$$S'_{bo} + \alpha S'_{so} - \alpha S_{so} = \frac{(h-x)}{2} A_{bt} \quad (4)$$

bu yerda S_{bo} - kesim yuzasidagi beton siqilish zonasining holis o'qqa nisbatan olingan statik momenti;

$\alpha S'_{so}$ - kesim yuzasidagi siqiluvchi zonada joylashgan armaturaning holis o'qqa nisbatan olingan statik momenti;

αS_{so} - kesim yuzasidagi cho'ziluvchi zonada joylashgan armaturaning holis o'qqa nisbatan olingan statik momenti;

A_{bt} - cho'ziluvchi zonadagi betonning kesim yuzasi.

4.2. Ikki nishabli oldindan zo'riqtirilgan, tuynukli temirbeton to'sinning hisobi

To'sin, havo namligi $\varphi = 50...60\%$ li va agressiv bo'lmagan muhitli yopiq binoni qurishda qo'llaniladi. U oldindan zo'riqtirilgan bo'lib, ishchi armaturasi stend tirgovichlari yordamida mexanik usulda tortilib taranglanadi. Stend tirgovichlarining oralig'i 20 m ga teng.

To'sin gorizontal holatda tayyorlanadi va qotish jarayonida unga atmosfera bosimi ostida harorat orqali ishlov beriladi.

Shuning uchun taranglanayotgan armatura bilan tirgovichlar orasidagi haroratning farqi $t=65^o\ C$ ga teng bo'ladi



20-rasm. 18 m li tuynukli to'sinning geometrik o'lchamlari

4.2.1. Hisoblash uchun berilgan kerakli ma'lumotlar

To'sinning uzunligi l=18 m, qiyaligi $i = \frac{1}{12}$, tayanch zona balandligi h=900, eni b=240 mm, xususiy vazni 92kN, ustun qadami 6 m,

cho'ziluvchi kamarning balandligi h=360mm olinadi. Siqiluvchi kamarning balandligi (1) formula shartiga binoan $h'_f > 0{,}005 \cdot 1270 \cdot \frac{680}{15{,}3} = 282$ mm hamda armatura karkaslarining joylanish shartiga asosan h_f=320 mm ga teng qilib olinadi. Ishlatiladigan beton sinfi B30, zo'riqtirilgan armatura sinfi A-V.

Og'ir beton sinfi B30, [1]

R_b=17MPa; R_{bt}=1,2 MPa ($R_b = 17 \cdot 0{,}9 = 15{,}3 MPa$; R_{bt}=1,2·0,9$MPa;$)

$R_{b,ser}$=22MPa; $R_{bt,ser}$=1,8MPa; E_b=32,5·10^3MPa.

Ish sharoiti koeffitsiyenti $\gamma_{b2} = 0{,}9$;

Tortilgan armaturani bo'shatib yuborilgan holatdagi betonning mustahkamligi: R_{bp}=0,8 B=0,8·30=24MPa. Bunda quyidagi qiymatlar B20 va B25 sinflari oralig'ida interpolyatsiya yo'li bilan olinadi.[6]

$R_{bp,ser}$=16,2MPa; $R_{bt,p,ser}$=1,54 MPa; E_b=26,4 MPa.

Taranglangan armatura sinfi A-V (R_s=680 MPa; $R_{s,ser}$=785 MPa; E_s=19·10^4 MPa)

Oddiy armaturalar sinfi A-III (R_s=365 MPa diametri 10…40 mm li sterjenilar uchun; R_s=355 MPa; (R_{sw}=285 MPa diametri 6…8 mm li sterjenlar uchun; E_s=20·10^4 MPa); A-I (R_s=255MPa, R_{sw}=175MPa) ва B_p-I(R_s=360MPa; E_s=17·10^4 MPa) [1].

Taranglangan armaturada hosil bo'ladigan kuchlanish quydagicha aniqlanadi.

Kuchlanish miqdori quyidagi shartga ko'ra aniqlanadi [1].

$$\sigma_{sp} + P < R_{s,ser}$$

bundan $\sigma_{sp} = \frac{R_{s,ser}}{1{,}05} = \frac{785}{1{,}05} = 747 MPa$ $\sigma_{sp} = 740 MPa$ qilib qabul qilamiz.

4.3. To'singa tushadigan yuklarni hisoblash

To'sinning hisobiy uzunligi (2) formula bo'yicha topiladi.

$$l_0 = 18 - 2 \cdot 0{,}04 - 2 \cdot 0{,}13 = 17{,}7\, m$$

To'singa ta'sir etuvchi yuklarning hisobi 9-jadvalda keltirilgan:

9-jadval

	Yuk turlari	Me'yoriy yuk,kN/m^2	Yuk bo'yicha ishonchlilik koef.γ_f	Hisobiy yuk kN/m^2
1	2	3	4	5
1	Doimiy yuk: Atmosfera ta'siridan himoya qiladigan qatlam (bitum mastikasi bilan yopishtirilgan 3 qavatli ruberoid) Sement qorishmasi (δ=15 mm ρ=18kN/m^3) Issiqlik ta'siridan himoya qiladigan qatlam (δ=100 mm ρ=5kN/m^3) Bug' ta'siridan himoya qiladigan qatlam Tom yopmasidagi temirbeton plitadan	 0,1 0,27 0,5 0,05 1,57	 1,1 1,2 1,2 1,1 1,1	 0,11 0,32 0,60 0,06 1,73
2	tushadigan yuk (3x6 m). JAMI:	2,49		2,82
	Vaqtinchalik yuk: Qor og'irligi	0,5	1,4	0,7
	Umumiy yuk miqdori:	2,99		3,52

To'sinning 1 m uzunligiga tushadigan yuk qiymatini aniqlash:

To'liq yuklarning me'yoriy qiymati:

$$q_n=2,99\cdot6+5,12=23,06 \text{ kN/m}$$

Uzoq muddat ta'sir etuvchi yuklarning qiymati:

$$q_{nl}=2,49\cdot6+5,12=20,06 \text{ kN/m}$$

To'liq yuklarning hisobiy qiymati:

$$q=3,52\cdot6+5,63=26,75 \text{ kN/m}$$

bu yerda balkani 1 m uzunlikdagi vaznining me'yoriy qiymati.

$$q_n=92/17,96=5,12 \text{ kN/m}$$

hisobiy qiymati: $q=5,12\cdot1,1=5,63$ kN/m

To'sinning 5b-rasmda ko'rsatilgan har bir hisobiy kesimlari uchun (3) formula bo'yicha eguvchi moment qiymatlari topiladi.

Quyida misol tariqasida 1-1 kesimda (x=2,95 m) hosil bo'ladigan eguvchi momentlar qiymatini hisoblash keltirilgan.

Uzoq muddat ta'sir qiladigan me'yoriy yukning qiymatidan (γ_f=1 bo'lgan holda) hosil bo'ladigan moment.

$$M_{1-1}=0,5\cdot q_{nl}\cdot x(l_0-x)=0,5\cdot20,06\cdot2,95\cdot(17,7-2,95)=436,4 \text{ kNm}$$

To’liq yukning me’yoriy qiymatidan hosil bo’ladigan eguvchi moment

$$M_{1\text{-}1}=0,5\cdot 23,06\cdot 2,95\cdot (17,7\text{-}2,95)=501,7 \text{ kNm}$$

To’liq yukning hisobiy qiymatidan hosil bo’ladigan eguvchi moment ($\gamma_f>1$ bo’lgan holda)

$$M_{1\text{-}1}=0,5\cdot 26,75\cdot 2,95\cdot (17,7\text{-}2,95)=582 \text{ kNm}$$

Xuddi shuningdek 2-2, 3-3 va 4-4 kesimlar uchun (x masofani o’zgartirgan holda) eguvchi moment qiymati topiladi. Ularning qiymatlari kNm birligida 10-jadvalda keltirilgan.

Kesim bo’yicha eguvchi momentlarning qiymati

10-jadval

Kesim	Masofa *x*, m	Uzoq muddatli yuklar, (γ_f=1)	To’liq yuklar	
			γ_f=1	γ_f>1
1-1	2,95	436,4	501,7	582,0
2-2	5,9	698,3	802,7	931,2
3-3	8,85	785,6	903,0	1047,6
4-4	6,55	732,5	842,1	976,8



21-rasm. To’singa tushadigan yuklar



22-rasm. To’sinning hisobiy uzunligi va kesimlari

4.4. To’sinni normal kesimi bo’yicha mustahkamlikka hisoblash

To’sinning normal kesimi bo’yicha mustahkamligi eng havfli kesim uchun aniqlanadi (4-4 kesim, 22-rasm).

Kesim balandligi

$$h = h_0 + (\delta + 0{,}37 \cdot l) \cdot i = 890 + \frac{(130 + 0{,}37 \cdot 17700)}{12} = 1447mm \approx 1450mm$$

bu yerda $i = \frac{1}{12}$ -to’sin ustki kamarining qiyaligi

δ=130 mm (20-rasmga qarang)

h_0=890 mm to’sin uchining balandligi

Kesimning ishchi balandligi

$$h_0 = h - a = 1450 - 180 = 1270 \text{ mm}$$

Siqilish zonasida beton kesim yuzasining ishlashini xarakterlovchi koeffitsiyent ω.

$$\omega = a - 0{,}008 \cdot R_b = 0{,}85 - 0{,}008 \cdot 15{,}3 = 0{,}728$$

bu yerda $a = 0{,}85$ koeffitsiyent, og’ir betonlar uchun. [1]

Taranglangan armaturadagi qo’shimcha kuchlanish $\Delta\sigma_{sp}$ topiladi, buning uchun:

a) ankerlarning deformatsiyalanishi natijasida oldindan uyg’otilgan kuchlanishning kamayishi aniqlanadi.

$$\sigma_3 = \frac{\Delta l}{l} \cdot E_s = \frac{3,95}{18000} \cdot 19 \cdot 10^4 = 41,7 MPa;$$

bu yerda $\Delta l = 1,25 + 0,15 \cdot d = 1,25 + 0,15 \cdot 18 = 3,95 mm$ (d=18mm mo'ljallangan ishchi armatura diametri).

b) po'lat qolipning deformatsiyalanishi natijasida kuchlanishning kamayishi.

$\sigma_5 = 30 MPa$ (agar qolip to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda).

v) betonning siqilishga qadar, armaturaning to'g'ri tortilishini hisobga oluvchi koeffitsiyent $\gamma_{sp} > 1$ bo'lganda (σ_3 bilan σ_5 larni nazarga olgan holda) taranglangan armaturadagi kuchlanish qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma_{sp1} = \sigma \cdot (1 - \Delta\gamma_{sp}) - \sigma_3 - \sigma_5 = 740(1 - 0,1) - 41,7 - 30 = 594,3 MPa,$$

bu yerda $\Delta\gamma_{sp}$- taranglangan armaturadagi kuchlanishning chegaraviy holatidan og'ish qiymati, lekin u 0,1 dan kam bo'lmasligi lozim [1]. Shuning uchun $\Delta\gamma_{sp}$=0,1 deb olamiz.

$\Delta\sigma_{sp}$ ning qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta\sigma_{sp} = 1500 \frac{\sigma_{sp1}}{R_s} - 1200 = 1500 \cdot \frac{594,3}{680} - 1200 = 111 MPa > 0.$$



23-rasm. To'sin uchining o'lchami



24-rasm. To'sin kesimi



25-rasm. To’sin hisobiy sxemasi

Taranglangan armaturada nisbiy chegaraviy oquvchanlik chegarasidagi kuchlanish $\Delta\sigma_{sr}$ ni aniqlashda va shu armaturadagi oldindan uyg’otilgan kuchlanishlarning umumiy kamayishi noma’lum bo’lsa, u holda $\Delta\sigma_{sp}$ quyidagicha olinadi:

$$\Delta\sigma_{sp}=0,6\cdot R_s=0,6\cdot 680=408 \text{ MPa}.$$

U holda $\Delta\sigma_{sr}$ quyidagi formula orqali topiladi

$$\Delta\sigma_{sr}=R_s+400-\sigma_{sp}-\Delta\sigma_{sp}=680+400-408-111=561MPa$$

Ishlash sharoiti bo’yicha koeffitsiyenti $\gamma_{b2}=0,9$, shuning uchun $\sigma_{sc,u}=500МПа$ deb olinadi, ($\gamma_{b2}>1$ bo’lgan holda esa $\sigma_{sc,u}=400MPa$ teng).

Siqiluvchi kesim yuzasining nisbiy balandligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\xi_R=\frac{\omega}{1+\frac{\sigma_{SR}}{\sigma_{ss,u}}\left(1-\frac{\omega}{1,1}\right)}=\frac{0,728}{1+\frac{561}{500}\left(1-\frac{0,728}{1,1}\right)}=0,568$$

Balkaning mustahkamligi bo’yicha sharti:

$$M=976,8\cdot 10^5 kNsm<R_b b'_f h'_f(h_0-0,5h'_f)=$$
$$=15,3\cdot(100)\cdot 24\cdot 32\cdot(127-0,5\cdot 32)=1304\cdot 10^5 kNsm$$

Shart bajarildi, demak holis o’q yuqori kamarning balandligi oralig’ida bo’lgan masofadan o’tadi.

U holda α_m koeffitsiyentning qiymatini aniqlaymiz:

$$\alpha=\frac{M}{R_b b_f h_0^2}=\frac{976,8\cdot 10^5}{15,3\cdot 24\cdot 127^2\cdot(100)}=0,165$$

Bu qiymatga asosan 3.1-jadval [3] dan $\xi = 0{,}18;\ \zeta = 0{,}91$ qiymati olinadi.

$\xi = 0{,}18 < \xi_R = 0{,}568 \approx 0{,}57$ shart bajarildi.

Zo'riqtirilgan armatura A-V uchun ish sharoiti bo'yicha koeffitsiyenti γ_{s6} aniqlanadi.

$$\gamma_{s6} = \eta - (\eta - 1) \cdot \left(2 \cdot \frac{\xi}{\xi_R} - 1 \right) = 1{,}15 - (1{,}15 - 1) \cdot \left(2 \cdot \frac{0{,}18}{0{,}568} - 1 \right) = 1{,}20 > 1{,}15$$

bu yerda η koeffitsiyenti armaturaning sinfiga bog'liq bo'lib, A-V armatura uchun γ_{s6}=1,15 deb qabul qilamiz [1].

Ishchi armatura yuzasi quyidagi formuladan topiladi.

$$A_{sp} = \frac{M}{\gamma_{s6} \cdot R_s \cdot \zeta \cdot h_0} = \frac{976{,}8 \cdot 10^5}{1{,}15 \cdot 680 \cdot 0{,}91 \cdot 127 \cdot (100)} = 10{,}81 sm^2$$

Qabul qilamiz 6Ø 16 A-V, A_{sp}=12,06>10,81 sm^2

4.5. Kesim yuzalarining geometrik xarakteristikalari

Geometrik xarakteristikalar 22-rasmda ko'rsatilgan kesimlar uchun aniqlanadi (masalan 4-4 kesim uchun aniqlaymiz).

Beton kesimining yuzasi:

$$A_b = \Sigma h b_i = 24 \cdot 32 + 24 \cdot 36 = 1632 см^2$$

Bo'ylama armaturalarning kesim yuzalari

6Ø 16 A-V, A_{sp}=12,06sm^2 zo'riqtiriladigan armatura;

4Ø 5 Bp-I, A_s=0,785sm^2 kesimning pastki qismidagi oddiy armatura;

4Ø 12 A-III, A_s=4,52sm^2 kesimning yuqori qismidagi oddiy armatura;

u holda $A_{sp} + A_s + A_s$=12,06+0,785+4,52=17,36 sm^2 .

Armatura yuzasini quyidagi shart bo'yicha tekshiriladi:

0,008 A_b=0,008·1632=13,06 sm^2<17,36 sm^2,

demak, to'sinning keltirilgan kesim yuzasi hisoblanganda armaturalar yuzasi hisobga olingan holda aniqlanadi.

A-V –sinfli armatura uchun

$$\alpha_1 = \frac{E_s}{E_b} = \frac{1{,}9 \cdot 10^5}{3{,}25 \cdot 10^4} = 5{,}85$$

Bp-I – sinfli armatura uchun

$$\alpha_2 = \frac{1{,}7 \cdot 10^5}{3{,}25 \cdot 10^4} = 5{,}23$$

A-III – sinfli armatura uchun

$$\alpha_3 = \frac{2{,}0 \cdot 10^5}{3{,}25 \cdot 10^4} = 6{,}15$$

Keltirilgan kesim yuzasi (4-4 kesim uchun, 21-rasm).

$$A_{red} = A_b + \alpha_1 A_{sp} + \alpha_2 A_s + \alpha_3 A_s^{'} = 1632 + 5{,}85 \cdot 12{,}06 + 5{,}23 \cdot 0{,}785 + 6{,}15 \cdot 4{,}52 = 1734{,}5 sm^2$$

Keltirigan kesim yuzasining element ostki qirrasiga nisbatan olingan statik momenti:

$$S_{red,0-0} = bh_f^{'}(h - 0.5h_f^{'}) + bh_f \cdot 0{,}5h_f + \alpha_1 A_{sp} \cdot 0{,}5h_f + \alpha_2 A_s \cdot 0{,}5h_f + \alpha_3 A_s^{'} \cdot (h - 0{,}5h_f^{'}) =$$

$$= 24 \cdot 32 \cdot (145 - 0{,}5 \cdot 32) = 24 \cdot 36 \cdot 0{,}5 \cdot 36 + 5{,}85 \cdot 12{,}06 \cdot 0{,}5 \cdot 36 + 5{,}23 \cdot 0{,}785 \cdot 0{,}5 \cdot 36 +$$

$$+ 6{,}15 \cdot 4{,}52 \cdot (145 - 0{,}5 \cdot 32) = 119554 sm^3$$

Keltirilgan kesim yuzasining og'irlik markazidan, to uning ostki qirrasiga qadar bo'lgan masofa:

$$y_0 = \frac{S_{red,0-0}}{A_{red}} = \frac{119554}{1734{,}5} = 68{,}9 sm$$

Keltirilgan kesim yuzasining og'irlik markaziga nisbatan olingan inersiya momenti:

$$I_{red} = \frac{b(h_f^{'})^3}{12} + bh_f^{'}(h - y_0 - 0{,}5h_f^{'})^2 + \frac{bh_f^3}{12} + bh_f(y_0 - 0.5h_f)^2 + \alpha_1 \cdot A_{sp} \cdot (y_0 - 0{,}5h_f)^2 +$$

